

**MIRZO ULUG'BEKNING O'ZBEKISTON TARIXIDA TUTGAN O'RNI***Baxtiyorov Shoxrux G'ulom o'g'li**O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika Insituti**Bakalavr 4-bosqich talabasi**[baxtiyorovshoxrux1129@gmail.com](mailto:baxtiyorovshoxrux1129@gmail.com)**+998994554102*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Mirzo Ulug'bekning ilmiy merosi va uning jahon miqyosidagi ahamiyati, olim tomonidan amalga oshirilgan davlat islohotlari tahlil qilinadi va bundan tashqari Ulug'bekning astronomiya faniga qo'shgan hissasi va Samarqandda bo'lgan vaqtda qilgan ishlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** rasadxona, madrasa, Mirzo Ulug'bek, sivilizatsiya, fan, astronomiya, madaniyat.

**Аннотация.** В данной статье анализируется научное наследие Мирзо Улугбека и его значение в мировом масштабе, государственные реформы, осуществленные ученым, а также рассказывается о вкладе Улугбека в астрономическую науку и о работе, которую он проделал во время пребывания в Самарканде.

**Ключевые слова:** обсерватория, медресе, Мирзо Улугбек, цивилизация, наука, астрономия, культура.

**Abstract.** This article analyzes the scientific heritage of Mirzo Ulugbek and its importance on the world scale, the state reforms implemented by the scientist, and also talks about Ulugbek's contribution to the science of astronomy and the work he did during his stay in Samarkand.

**Key words:** observatory, medrese, Mirzo Ulugbek, civilization, development of science, astronomy, culture.

Har qanday davlatning kuch - qudrati, shonu shavkati, avvalo, uning xalqi, shu xalq orasidagi vatanparvar, mard va jasur farzandlari bilan belgilanadi. Bunday insonlar bizning ko'hna diyorumizda juda ko'plab topiladi. Temuriylar davlatining shavkatli va qudratli hukmdorlari ko'p bo'lgan bo'lsada, ma'rifatga va ilm-fanga o'zini baxshida etgan, butun umrining mazmunini odamlarni ma'rifatli qilishga bag'ishlagan zot, zabardast olim, yulduzlar ilmining yetuk bilimdoni Mirzo Ulug'bek edi.

Qadim tariximizning insoniyat rivojida katta iz qoldirgan bir qismi Mirzo Ulug'bek faoliyatida mujassam bo'lgan. Bugun nasl-nasabimizni eslash va tiklash zamoni kelgan bir davrda, kelajagimizni qurayotgan bir vaqtda katta g'urur va iftixor bilan aytishimiz mumkin: bizlarning tomirlarimizda Ulug'bek qoni bor, yuragimizda Ulug'bek ruhi barhayotdir. Bugun bizning mamlakatimizni, bizning salohiyatimizni tan olayotgan davlatlar va xalqlar bir narsani yaxshi anglamoqda: Ulug'bekday

munosib farzandlari bo'lgan millat har qaysi zamonda va har qanday sharoitda ham yangidan-yangi g'oyalarni yaratishga va rivojlantirishga qodir xalqdir. Mirzo Ulug'bekday benazir allomaning o'rta asrlar sharoitida namoyon etgan ilmiy jasorati bugungi kun olimlarini ham hayratga solmasdan qo'ymaydi. Taqdir bu ulug' zotning zimmasiga behad ulkan va mashaqqatli vazifalar yukladi. Buyuk sarkarda Amir Temur bunyod etgan saltanatning vorisi bo'lishdek mislsiz sinov aynan unga nasib etdi. Cheksiz aql-idroki, azmu qat'iyati, odilona siyosati bilan Mirzo Ulug'bek qariyb qirq yil mobaynida Movarounnahr diyorining donishmand hukmdori bo'lib, xalqlarning azaliy orzusi - tinchlik, totuvlik, har tomonlama taraqqiyotni qaror toptirish yo'lida mislsiz shijoat va matonat ko'rsatdi. Mirzo Ulug'bek, avvalo, ilmiy farazlar bilan emas, balki sof amaliy uslubda ijod qildi. Minglab yulduzlarni jamlagan mukammal xarita va bugungi eng zamonaviy hisoblardan deyarli farq etmaydigan mukammal astronomik jadvalini yaratdi. Uning hayoti va ijodi o'zbek xalqi ma'naviyati poydevoriga qo'yilgan tamal toshlaridan biri bo'lib, xalqimizning o'rta asrlarda fundamental fanga nechog'lik buyuk ahamiyat berganini ko'rsatadi. "Ziji jadidi ko'ragoniy" deb nomlangan Ulug'bek astronomik jadvali o'rta asrlarda lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropa olimlari orasida keng tarqalgani bu fikrimizning yaqqol isbotidir. Mirzo Ulug'bek o'z umrini kelajak uchun, bugungi hayot uchun fido etdi. O'sha uzoq zamonlarda bashariyat taraqqiyotini o'ylab yashadi, o'z avlodlari asrlar osha tartib etajak ma'rifatli bir jamiyatni orzu qildi. Har qanday millat ham Ulug'bekday farzandni tarbiya etgani uchun g'ururlanishi tabiiy holdir. Chunki bunday insonlar faqat o'z xalqiga emas, balki umumbashariy sivilizatsiya uchun ham xizmat qiladi va jahonning e'tiborini qozonadi. Biz bugun tafakkurimizda, hayotimiz va taqdirimizda ro'y berayotgan ulkan o'zgarishlarni Ulug'bek singari ajdodlarimiz ruhiga tayanib amalga oshirmoqdamiz. Buyuk davlat poydevorini qurish, dunyoda o'zimizga munosib o'rinni egallashda Al-Beruniy, Ibn Sino, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Xoja Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi bobolarimizning bebaho merosi hamisha boshimizni baland, qaddimizni tik qiladi, xalqimizning kuchiga-kuch, g'ayratiga-g'ayrat, ishonchiga-ishonch qo'shadi. [1]

"Buyuk Amir Temurning nabirasi, benazir alloma Mirzo Ulug'bekning o'rta asrlar sharoitida namoyon etgan ilmiy jasorati bugungi kun olimlarini ham hayratga solmasdan qo'ymaydi. Taqdir bu ulug' zotning zimmasiga behad ulkan va mashaqqatli vazifalar yukladi. Amir Temur bunyod etgan saltanatning vorisi bo'lishdek o'ta ma'suliyatli vazifa aynan unga nasib etdi. Mirzo Ulug'bek qariyb qirq yil mobaynida Movarounnahr diyorining donishmand hukmdori sifatida xalqning azaliy orzusi – tinchlik, totuvlik, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy toptirish yo'lida ulkan shijoat va matonat ko'rsatdi".[2]

Mirzo Ulug‘bek rasman bobosi Amir Temur saltanatining tojkor hukmdori va otasidan mustaqil ravishda davlatni idora qilsada, u boshqa temuriyzodalarga umuman o‘xshamasdi. Taxt ilinjida bir-birlari bilan urush qilayotgan shahzodalardan farqli Ulug‘bek davlat ishlari bilan birga o‘zi sevgan mashg‘ulot- ilm bilan shug‘ullanishni ma’qul ko‘rardi. Shuning uchun Ulug‘bek tarixda haqiqiy olim sifatida nom qoldirgan. Ulug‘bek qadimgi Yunon olimlaridan Platon (Aflotun), Aristotel (Arastu), Gipparx va Ptolomey, Sharq olimlaridan Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va Nosiriddin Tusiy ilmiy merosi bilan yaqindan tanish edi. U o‘zi qurdirgan madrasada aniq fanlardan maruzalar o‘qigan, ilmiy bahslar uyushtirgan, astronomik kuzatishlar olib borgan, astronomiya, matematika va tarixga oid asarlar yozgan. Ulug‘bek ilmiy akademiyasi musulmon Sharq madaniyati va fani tarixida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etdi. Uning rahbarligida shakllangan riyoziyot va falakiyot maktabi fan tarixida alohida nufuzga ega bo‘ldi. Mirzo Ulug‘bek o‘z saltanatida ma’rifat, fan va ta’lim ravnaqi uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi. U mamlakatda fanni rivojlantirishni o‘z dasturiga ko‘ra amalga oshirdi va bu yaxlit “fan va ta’lim dasturi” edi. Ulug‘bek “o‘zi va maslahatchilari tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy dasturni amalga oshirish uchun” ma’lum ob’ektlarni qurishni rejalashtirgan. “Chunonchi hozirgi zamon ta’biri bilan aytganda, ta’lim markazi bo‘lmish madrasa (Ulug‘bek madrasasi) laboratoriyasini – rasadxona va kutubxonalar majmui holida bunyod etish dasturning asosiy elementlaridan bo‘ldi. Ayni paytda ta’lim dasturida butun Movorounnahr hududida ilmiy salohiyatni ko‘tarishdek katta g‘oyani amalga oshirish ko‘zda tutilgan va shu maqsadda madrasalar barpo etilgan edi”. [3] Ulug‘bek butun kuchini ilmiy faoliyatga bag‘ishlab va o‘z imkoniyatlaridan foydalanib, Samarqandda yuqorida zikr qilingan madrasani barpo qildirgan va bu madrasa uning kuch-g‘ayratlari tufayli o‘z zamonasidagi ilg‘or oliy o‘quv yurtigina bo‘lib qolmay, shu bilan birga o‘sha zamonning ilmiy muassasiga ham aylanadi. Ulug‘bekni qurshab olgan adabiyot, san’at va fan namoyondalari orasida astronomlar yetakchi, faxrli o‘rinni egallab turardi. Ulug‘bekning faol ishtiroki va rahbarligida Samarqandda ilmiy faoliyat muvaffaqiyat bilan rivojlanib bordi. Astronomiya bilan muntazam ravishda shug‘ullanish – tegishli kuzatishlar olib borish va oddiy astronomik o‘lchashlar o‘tkazishni taqozo qilardi. Usturlob, quyosh soati kabi asboblarni rasadxona qurish uchun zarur zamin bo‘lgan. Ulug‘bek madrasalar qurilishidan so‘ng ilmiy faoliyatining keyingi bosqichini endi osmon jismlarini kuzatish va tekshirishga qulay rasadxona qurish rejasini amalga oshiradi. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida qo‘yidagi fikrlarni keltirib o‘tadi: “Ulug‘bek Mirzoning yana bir oliy imorati Pushtai Ko‘hak domanasida (etagida) rasaddurkim, zij bitmakning odatidur, uch oshyonliqdur”. [4] Rasadxonada yerli ziyolilar bilan bir qatorda turli yurt va elatlardan taklif etilgan mashhur astronomlar va matematiklar xizmat qilishar edi. Astronomlar sayyoralar va yulduzlarning Osmon kurrasidagi holatini kuzatishar, olingan ma’lumotlarga esa ilmiy

dargoh qoshidagi matematiklardan iborat hisobdonlar matematik ishlov berishar edi. Ana shu tariqa astronomik va trigonometrik jadvallar vujudga kelar edi.

Olimning ilmiy merosi XVIII asrdan beri butun dunyo ilmiy jamoatchiligining diqqat-e'tiborini o'ziga qaratib kelyapti. Mirzo Ulug'bek va uning ilmiy merosini o'rganishda mamlakatimizda ham, xorijiy mamlakatlarda ham juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Tarixchi sifatida buyuk olim yana bir shoh asar "Tarixi ar'ba ulus" ("To'rt ulus tarixi") asarini yozdi. Bu asar ham Ulug'bekning naqadar serqirra va ilmga chanqoq olim ekanligiga yana bir misol. Asar tarixiy, etnografik, xronologik ma'lumotlarga juda boy. Bu asar orqali biz o'rta asrlarda Movorounnahr, Mo'g'uliston, Xuroson va boshqa joylarning tarixini chuqurroq bilib olamiz. Asar an'anaviy islomiy odatga ko'ra yozib boshlangan va chingiziylarning uluslari haqida, ularning ijtimoiy va siyosiy ahvoli, hukmdorlari haqida keng ma'lumotlar beradi.

Xulosa qilib aytganda, jahon fani tarixida Ulug'bekning faoliyati kamdan-kam uchraydigan hodisadir. U faqat tabiiy qobiliyatlari bilan emas, shu bilan birga fanga nihoyatda muhabbat qo'rganligi, o'zining g'oyalari uchun ishonganligi, horib-tolmasligi, o'z vaqtidan unumli ravishda foydalana olganligi, serqirra hayotining barcha elementlarini baravar olib bora olganligi tufayli shunday faoliyat ko'rsata oldi. Biz bu buyuk bobokalonimizning bevosita avlodlarimiz va u qoldirib ketgan ulkan ilmiy merosning haqiqiy vorislarimiz, bu bebaho ilmiy merosni boshqalardan ko'ra kuchli va chuqur o'rganish bizning burchimiz va majburiyatimizdir. Mirzo Ulug'bekning umumbashariy qadriyatlarga qo'shgan hissasi beqiyos bo'lib, u bugungi kunda ham hayotimizda ulkan ahamiyat kasb etmoqda va O'zbekistonning xalqaro obro'sini oshirish yo'lida katta xizmat qilmoqda. Buyuk ajdodimiz Ulug'bek nomi berilgan ma'naviyat maskanlari, mahallalar, ko'chalar va shaharlar juda ko'p. Hozirgi kunda yoshlar uchun ilm-fan yutuqlarini chuqur egallash, Ulug'bek kabi jahonshumul ixtiro va kashfiyotlar qilishga barcha imkoniyatlar yaratilgan. Bugungi kun yoshlari bu imkoniyatlardan to'g'ri va samarali foydalanib, yurtimiz ravnaqiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shishlari shart.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I.A Bizdan ozod va obod Vatan qolsin T.: O'zbekiston, 1996. 331-bet.
2. Karimov I.A "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" T.: Ma'naviyat, 2008. 38-bet.
3. Lyusen Keren. Ulug'bek maktabi va uning usmonli turklar astronomiyasiga qo'shgan hissasi // Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjumanning materiallari. Toshkent-Samarqand 1994 y. 12-16 oktabr. 58 - bet.
4. Zahriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" T.: Sharq. 2002, 60 - bet.